



O'zbekiston Respublikasi Qonuni

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga
o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Asos: O'RQ-759-son Qonun, 14.03.2022-y.

Qonun bilan:

Qonun bilan biometrik passport o'rniga ID-kartalari joriy etilayotganligi sababli ayrim Kodekslar va qonunlarga **ID karta tushunchasi** kiritildi



ID-kartalarni, xorijga chiqish biometrik pasportini :

Yo'qotganlik, ularni yaroqsiz holga keltirganlik uchun javobgarlik belgilandi

135 000 dan 270 000 so'mgacha jarima

Agar mazkur huquqbuzarlik bir yil davomida **takroran sodir etilsa**

1 350 000 so'mgacha jarima solinadi

Pasportni yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani shaxslardan qonunga xilof ravishda olib qo'yish yoki garovga olish

2 mln 700 minggacha jarima
solishga sabab bo'ladi



Oila kodeksida:

Bolalarning tugʻilishini qayd etish ota-onasining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyidan qatʼi nazar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida **1 oy ichida** amalga oshirilishi belgilandi.

(Avval bu tartib boʻlmagan)



Qonunchilikdan:

Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga nikoh qayd etilganligi to'g'risida **belgi** qo'yilishiga oid norma **chiqarib tashlandi.**



Yer davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda:

Fuqarolarga uning o'rniga berilayotgan uy-joy avvalgi uy-joyidan qimmatroq bo'lsa, **farq qilgan qiymat fuqarolar tomonidan qaytarib berilmaydi.**

(Ilgari 5 yilda qaytarilishi lozim edi)



Ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan shaxsga, shuningdek unga hamrohlik qiluvchi shaxsga:



Xorijiy davlatda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatilganda yoki jarrohlik amaliyoti o'tkazilganda xorijga chiqish uchun biometrik pasportini berganlik uchun **davlat boji undirilmaydi**



ID-karta berganlik uchun:

BHMning **89 foizi**
miqdorida boj undiriladi
(240 300 so‘m)



Xorijga chiqish uchun biometrik pasportni berganlik uchun:

BHMning 1 baravari
(270 000 so‘m) miqdorida
undiriladi



**E'tiboringiz uchun
rahmat**

